

**BOLALAR FOLKLOR QO`SHIQLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI***Hamdamova Sitara Rustamovna**Buxoro davlat universitetining Pedagogika**Instituti Musiqa ta'lim kafedrasi**II-bosqich magistranti.**Nurullayev F.G.**Ilmiy rahbar P.f.f.d (PhD) dotsent. Bux DU.*

**Annotatsiya.** Maqolada folklor qo`shiqlari turlari va ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati. Xalqning ma'naviy va moddiy turmush tarzi, va ularning axloq mezonlari, o'tmishi, buguni va kelajagi, manaviy hayotga bo'lgan qiziqish va intilishlarini va tarbiyaviy ahamiyatini namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** folklore, qo`shiq, marosim, lapar, ashula, yalla.

**Аннотация.** В статье рассматриваются роль фольклорных песен в воспитании молодежи. Знакомство со своей национальной культурой. Обсуждаются структура личности, место детского народного фольклора у школьников, целенаправленные педагогические процессы формирования и интеграции нравственных качеств.

**Ключевые слова:** народные песни, культура, музыка, песня, мероприятие, чувство, интеллект, арт, литература, дитя, способность, воспитание.

Musiqa san'ati vositasida kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish o'quvchilarni ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, jismonan sog'lom, milliy madaniyat qadriyatlarga ongli munosabatda bo'ladigan insonlar qilib tarbiyalash –Vatanimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zero, insonni bolalikdan musiqaga qiziqtirish, musiqiy idrok ,tasavvurini o'stirib borish har bir jamiyat uchun nihoyatda zarur bo'lgan holatdir. Shu jarayonda musiqaga insonga insonligini eslatib ,uning qalbida kelajakka umid va ishonch uyg'otadi.

Bu borada Prezidentimiz SH. M. Mirziyoev quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga etkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati ,milliy urf odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Shu ma'noda musiqaga hech narsa bilan o'lchab solishtirib bo'lmaydigan ilohiy tasir kuchiga ega desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz."<sup>1</sup> Shu boisdan ham o'quvchilarni musiqiy saviyasini rivojlantirib borish, musiqaga san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirib ,zaruriy bilim va amaliy ko'nikmalar doirasini tarkib toptirish ,ayniqsa musiqaga iqtidori bor o'quvchilarning malakaviy

<sup>1</sup> Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 B.

mahoratini oshirishda alohida e'tibor qaratish ,zaruriy shart –sharoitlar yaratish davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib turibdi.O'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun qo'shiq juda muhim rol o'ynaydi.Chunki qo'shiq o'zida badiiy va musiqiy g'oyalarning o'zaro uyg'unlashgan obrazlarini tarkib toptiradi.Bu borada ayniqsa, milliy, folklor qo'shiqlarning mazmundorligi o'zgachadir.Milliy qo'shiqlarda xalqimizning milliy madaniyati,hissiy kechinmalari,inssoniy fazilatlarlari,ma'naviy dunyosi o'z aksini topadi.Bugun mamlakatimizda milliy taraqqiyotimizning yangicha bosqichda ko'tarilishi davrida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda fan va texnikaning shiddatli rivojlanishi, innovatsion texnologiyalarining hayotga jadal sur'atda kirib kelishi ta'lim jarayonlarini, shu jumladan, musiqa ta'limi jarayonlarini pedagogik jihatdan texnologiyalash, musiqa o'qitishning yangicha shart-sharoitlarini takomillashtirishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda.Shu jumladan o'zimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to'g'risida "gi PF-5712-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi " PQ - 4320 son, 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmonlari Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagi "Buyuk ipak yo'li halqaro musiqa festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi" 371- sonli Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 iyundagi "Nurli navolar va halqaro folklor festivalini tashkil etish va o'tkazish hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertastiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Musiqa san'atining qo'shiq shakli darsning asosiy o'quv materiali hisoblanadi. U kuydan shunisi bilan farq qiladiki ,qo'shiqqa ham ohang ham badiiy so'z uyg'unlashuvi natijasida nazm va navoning umumlashuvidan badiiy g'oyasi vujudga keladi. Shu boisdan qaraganda o'quvchi qo'shiqni kuylashi orqali musiqiy ohang va badiiy ma'nosini anglab olish natijasida badiiy g'oyasi vujudga keladi. Musiqa ta'limining milliy meros, xalq an'analari va urf-odatlarlari bilan uzviy uyg'unligi, milliy madaniyat namunalari saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimining amalga oshirilishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash imkonini berdi.

Yangilanayotgan O'zbekistonimizda barkamol avlodni tarbiyalash uzluksiz ta'lim muassasalarining zimmasiga ham muayyan vazifalarni yuklamoqda. Ana shunday vazifalardan biri– musiqa ta'limida xalq qo'shiqlarini o'rgatish, o'quvchilarga milliy musiqiy meros, xususan, milliy musiqiy an'analar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar to'g'risida nazariy ma'lumotlar berish, xalq qo'shiqlarini ijro etish layoqatini hosil qilish, ijrochilik malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Musiq ta'limida xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni milliy ma'naviy tarbiyalash beqiyosdir. Xalq qo'shiqlari mazmunida shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-ahloqiy qarashlar mujassamlashgan bo'lib muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunonchi, xalq qo'shiqlar mazmunida ota-onalarning hurmatlarini saqlash, qarindosh-urug' hamda qo'ni-qo'shnilar bilan samimiy munosabatda bo'lish, ularga g'amxo'rlik, mehribonlik, mehr-oqibat ko'rsatish, quvonchu tashvishlariga sherik bo'lish, dillariga ozor etkazmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Mustaqillik sharofati bilan musiqa faniyangi avlodlarini yaratilishi natijasida o'zbek xalq qo'shiqlari namunalaridan o'quvchilar kengroq bahramand bo'lishga erishdilar. Yangi avlod darsliklari tubdan boshqa tus oldi. Ular asosan milliy ruhda yozilgan kuy va qo'shiqlar bilan boyitildi. Ayniqsa, asrlar osha xalqimiz kuylab kelayotgan o'zbek milliy qo'shiqlari darsliklarga ko'proq kiritildi. Jumladan, o'zbek xalq va qo'shiqlaridan "CHittigul", "Boychechak", "Bahor keldi", "Qichqir xo'rozim", "Hey lola" kabi qo'shiqlarni misol keltirish mumkin. Bunday qo'shiqlardan tashqari yana qator qo'shiqlar musiqa tinglash faoliyatiga ham kiritildi. Bundan maqsad shuki, bolalar o'zbek xalq qo'shiqlarini ko'proq tinglab ular mazmunini tushunib, idrok etib olsinlar. Albatta bu ancha murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi.

Shu bois musiqa fani o'qituvchisi milliy qo'shiqlarimiz haqida puxta bilimga ega bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining bu boradagi bilim saviyasi va mahorati qancha mukammal bo'lsa, u o'z o'quvchisiga keng va to'liqroq ma'lumotlarni bera oladi. Aynan shu ma'noda olib borilgan kuzatuvlarimiz shundan dalolat beradiki, aksariyat musiqa o'qituvchilari o'zbek xalq qo'shiqlarining tarixiy taraqqiyoti, badiiy xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega emasliklari ma'lum bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: O'zbek xalqining qadim-qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqa merosi, folklore qo'shiqlari, xilma-xil janrlari hamda boy tasviriy vositalari bilan bizning kunlarimizda ham yangramoqda. Folklor qo'shiqlari ifodaning nozikligi, ruhiy holat tasvirining kuchliligi bilan asrlar davomida qalblarni bog'lab keladi. Ularning badiiy tasvir darajasi yillar o'tsa-da yuksalib boradi. Ko'rinib turibdiki, ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan marosimlar hamda unga ijro etiladigan aytilmalar aholining har bir o'tayotgan kunini qadrlash ardoqlash o'tayotgan umrni mazmunan boyitish, urfga aylangan qadriyatlarga sadoqatligini isbotlagan holda kelajak avlodga qoldiradi.

#### Adabiyotlar

1. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
2. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.

3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. [FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS.](#) Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. [METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION.](#) Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. Нуруллаев Ф.Г. Обряды и обычи связанные с рождением и воспитанием ребенка. Музыкальное искусство и образование: традиции и инновации: сборник материалов международное научное конференции. Бухара, 2019. 317– 320 стр.
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига кўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Вухоро. Б.175-180.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.
11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
12. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.
14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Аматти Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159

15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.
16. Nurullaeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
17. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
20. FARRUX NURULLAYEV, ROLE AND SIGNIFICANCE OF FOLKLER MUSIC IN THE UPBRINGING OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz): Том 4 № 4 (2021)
21. Нозима Қудратовна Нуруллаева. Подготовка будущих учителей музыки к методически грамотной профессиональной деятельности. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.975-981.
22. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Ўзбек халқининг мусиқа меросининг этнопсихологик хусусиятлари// Psixologiya ilmiy jurnal - № 2 (30)/2018.- Б.102-108.
23. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
24. Нуруллаев Ф.Г. [СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ](#)// Academy, № 3 (66), 48-50, ООО «Олимп».
25. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. [Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике](#)// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.
26. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.
27. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах//

SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.957-963.

28. Бобиршоҳ Ғайбуллоевич Нуруллаев. Музыкальный ракурс изучаемого объекта в особенности обучения фольклора// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.963-969.
29. Нигора Каримовна Нуруллаева. Теории музыки основа - основ музыкального формирующих принципов и правил произведения// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.969-975.
30. Мехринисо Бобиршоҳ кизи Нуруллаева, Нодир Джалолович Ядгаров. Мировые шедевры живописи великих художников - маятник в развитии художественного искусства// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.981-987.